

7-SINF
(102 soat)

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

mavzu bo'yicha suhbatlar, qoidalar va ular bilan bog'liq topshiriqlarni tinglab tushunadi;

grammatik bilimlarni mustahkamlashga doir savollarga javob beradi;
mavzuga oid dialoglarda so'zlovchining fikriga munosabat bildiradi;
matnlar mazmuni bo'yicha savollar tuza oladi va o'zaro suhbatlashadi;
ko'rsatilgan o'quv filmi mazmunini so'zlab beradi;

matndan grammatik mavzuga doir birikmalar va jumalarni ajratib yozadi;
mavzu bo'yicha berilgan matnlarni to'g'ri o'qiydi, she'rlarni o'qib, yoddan aytadi;

e'lon, tabrik, taklifnoma matnlarini yozadi.

berilgan savollar, tayanch so'zlar yoki rasm asosida 15-20 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuzadi.

51-60 so'zdan iborat diktant va bayon matnini yozadi.

1 chorak (27 soat)

1. Poytaxtim – faxrim. (5 soat)

Leksika: poytaxtimiz, muhtasham binolar, favvoralar, yangi turar-joylar, keng ko'chalar, mustahkam ko'priklar, obodonlashtirish, go'zal xiyobonlar, metro bekatlari, milliylik va zamonaviylik kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari . Sodda yasama so'zlar .

Adabiy o'qish: Saida Zunnova haqidagi xotiralar

2. Mahallam. (5 soat)

Leksika: mahalla, qo'shnilar, mehr-oqibat tufayli, orasta ko'chalar, ariqlar, oqar suvlar, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, hasharlar, mahallamiz oqsoqoli, mahalla faollari kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: So'z yasovchi qo'shimchalar , ularning so'zga qo'shilish tartibi .

Adabiy o'qish: Safar Barnoyev. “Mahallamiz” she'ri.

3. Ustozlar. (4 soat)

Leksika: ustoz muallim, ta'lim bergan ustozim, birinchi ustozim, ilk saboq bergan, to'g'ri yo'lga boshlagan, ustoz - otangdan ulug', ustozimga rahmat kabi so'z birikmalari.

Grammatika: Qo'shma so'zlar . Qo'shib yoziladigan so'zlar.

Adabiy o'qish: Tursunboy Adashboyev “O'qituvchim”

4. Til bilgan – el biladi. (4 soat)

Leksika: til o'rganish, ona tili, o'zbek tili, xorijiy tillar, o'zaro muloqot vositasi, fanlarni o'rganish vositasi, til bilgan – el biladi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.

Adabiy o'qish: Umida Abduazimova “O'zbekcha tush ko'raman”

5. Insoniy fazilatlar (4 soat)

Leksika: insoniy fazilatlar, kamtarlik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, to'g'riso'z, rostgo'y kabi tayanch so'zlar.

Grammatika: Juft va takror so'zlar

Adabiy o'qish: Xolmurod Safarov "Savollarga javoblar" she'ri

NI – 3 soat

Takrorlash – 2 soat

2 chorak (21 soat)

6. O'zbekiston tog'lari (4 soat)

Leksika: O'zbekiston tog'lari, tog' tizmalari, tog'oldi mintaqalar, tog'lar bag'rida yashiringan xazinalar, archazorlar, shifobaxsh giyohlar, oromgohlar kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Fe'l haqida ma'lumot. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.

Adabiy o'qish: Zafar Diyor. "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq" qissasi.

7. Shifobaxsh o'simliklar (4 soat)

Leksika: O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari, lola, ravoch, boychechak, yovvoyi piyoz, na'matak, archa, bodom, pista, yong'oq, tog'olcha, yovvoyi olma daraxtlari kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Fe'l zamonlari.

Adabiy o'qish: "Nozimaning guli" hikoyasi.

8. Vatan ostonadan boshlanadi (4 soat)

Leksika: Vatanga sadoqat, vatanparvarlik, Vatanni sevisht, asrab-avaylash, Vatanni himoya qilish, Vatanga xizmat qilish, fidoyilik unutilmaydi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Aniq o'tgan zamon fe'li.

Adabiy o'qish: Zikrilla Ne'mat "Elu yurt posbonlari"

Vatan sarhadlari (4 soat)

Leksika: Vatanimiz sarhadlari, chegarachilik kasbi, tinchlik posbonlari, ogohlik va xushyorlik, xalqimiz tinchligini saqlash, mas'uliyat bilan qarash kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Uzoq o'tgan zamon fe'li.

Adabiy o'qish: Rustam Nazar "Vatan tuyg'usi"

NI – 3 soat

Takrorlash – 2 soat

3 chorak (30 soat)

Adabiyot muzeyida (5 soat)

Leksika: adabiyot muzeyi, ko'rgazmalar, o'quvchilar, chet ellik mehmonlar, tashrif buyurmoq, nodir eksponatlar, qo'lyozma nusxalar, ilustrasiyalar, tasvirlangan kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: O'tgan zamon hikoya fe'li.

Adabiy o'qish: Aziz Qayumov. "Buyuk tarixchi bilan uchrashuv" (asardan parcha).

Ona – ulug' zot (5 soat)

Leksika: ulug' zot, xonadon chirog'i, dunyoga keltirib, katta qilib, o'stirib, voyaga yetkazgan kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: O'tgan zamon davom fe'li.

Adabiy o'qish: Mirtemir. "Buvijonim" she'ri.

Milliy urf-odatlarimiz (5 soat)

Leksika: milliy, qadriyatlar, odob-axloq, mehmondo'stligi bilan, mehnatkashligi tufayli, urf-odatlariga ko'ra kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: O'tgan zamon maqsad fe'li.

Adabiy o'qish: Xalq og'zaki ijodi. "Qarz" rivoyati

Amir Temur (5 soat)

Leksika: Buyuk sohibqiron, dovyurak, mustahkam irodali, otda yurish, yaxshi ko'rgan, o'sdi, ulg'aydi, yurtga bosh bo'ldi, barpo etdi, ulkan binolar qurdirdi, himoya qildi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Hozirgi zamon fe'li

Adabiy o'qish: Bo'riboy Ahmedov. Nasriy materiallari

Suv – hayot manbai (5 soat)

Leksika: zilol suvlar, suv zarralari, muzdek, suv – hayot manbai, suvning ahamiyati, o'qiyman, yozaman kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Hozirgi kelasi zamon fe'li.

Adabiy o'qish: Habib Po'latov. "Ikki irmoq" ertagi.

NI – 3 soat

Takrorlash- 2 soat

4 chorak (24 soat)

O'zbekistonning suv havzalari (5 soat)

Leksika: O'zbekiston suv havzalari, daryolar va ko'llar, Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Orolning qurishi, suv manbalarini asrash, buloqlar, turli kasalliklarga shifo kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Kelasi zamon gumon fe'li.

Adabiy o'qish: Muhammad Yusufni eslab xotiralaridan. "Ketib qolma, Orolim" she'ri

Sport – salomatlik garovi (5 soat)

Leksika: sport mashg'ulotlari, sport turi bilan shug'ullanmoq, muntazam, salomatlik garovi, sog'lom turmush, musobaqada qatnashmoq, "Barkamol avlod" musobaqalari kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Kelasi zamon maqsad fe'li.

Adabiy o'qish: Adabiy material

Tinchlikni asra (5 soat)

Leksika: kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Kelasi zamon aniq fe'li.

Adabiy o'qish: Ilyos Muslim "Jahon bolalarining talabi" she'ri

Mening orzularim (4 soat)

Leksika: yozgi ta'til, yozgi yumushlar, ta'til rejasi, turli sayohatlar, zilol suvlar, bepoyon qirlar, so'lim oromgohlar, kuch-quvvat yig'ib qaytish, dam olish kerak, uy yumushlariga yordam berish, bajarish lozim kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Fe'l zamonlarini takrorlash.

Adabiy o'qish: Sunnatulla Anorboyev. "Bahs" hikoyasi.

NI – 3 soat

Takrorlash- 2 soat